



MUSIQA DARSLARIDA MUAMMOLI O'QITISH: NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Qo`qon davlat universiteti katta o`qituvchi

S.S.Rasulova,

3-bosqich talabalari:

M. Nabiyeva, M. Masadiqova, H.O`lmasova

Annotatsiya.

Musiqqa ta'limi — bu o'quvchilarda nafaqat musiqqa bilimlarini shakllantirish, balki ularni ijodiy fikrlash, estetik did va madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan muhim soha hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim metodlari orasida muammoli o'qitish o'zining samaradorligi va o'quvchilarning faolligini oshirish imkoniyati bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada musiqqa darslarida muammoli o'qitish usullarining ahamiyati, afzalliklari va amaliy tatbiqi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Muammoli o'qitish, afzalliklari, qiyinchiliklari, “Muammoli vaziyat”, metodining bosqichlari.

Bugungi zamonaviy ta'lim yoshlardan kuchli salohiyatli, raqobatbardosh, maxsus qobiliyatli, zamon bilan hamnafas, maqsadli, ilmiy-texnika taraqqiyot talablariga javob beradigan, mustahkam irodali bo'lishni talab etadi. Bu kabi sifatlarni amalga oshirilishda esa muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta'lim bu mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar, echim topish, bilishga qiziqish, ehtiyoj, usullar qo'llaniladigan bir yangicha tizimidir.

Muammoli o'qitishning mohiyati va maqsadi quyidagicha bo'ladi.



Muammoli o'qitish — bu o'quvchilarni bilim olish jarayonida faollashtirish, ularni mustaqil fikrlashga, o'zlashtirayotgan materialni tahlil qilishga va yangi bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashga o'rgatish metodidir. Bu metod o'qituvchining faqat ma'lumot uzatish emas, balki o'quvchilarni muammolarni hal qilishga jalb qilishga asoslangan.

Musiqqa darslarida muammoli o'qitish o'quvchilarda musiqiy tafakkur, tinglash va ijro etish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Shu bilan birga, o'quvchilarda mualliflik faoliyati, ijodkorlik qobiliyati shakllanadi.

Musiqqa darslarida muammoli o'qitishning bir qancha afzalliklarini sanab o'tishimiz mumkin.

1. Faollikni oshirish: O'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil ravishda topishga majbur bo'lib, dars jarayonida faol ishtirok etadilar.

2. Ijodkorlikni rivojlantirish: Muammoli vaziyatlar ularni yangi musiqiy yechimlar izlashga undaydi.

3. Tanqidiy fikrlash: O'quvchilar o'z fikrlarini asoslashni, turli qarashlarni taqqoslashni o'rganadilar.

4. O'zaro hamkorlik: Guruh ishlari orqali musiqiy muammolarni birga hal qilish ko'nikmalari shakllanadi.

5. Nazariya va amaliyot uyg'unligi: Muammoli savollar va topshiriqlar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga yordam beradi.

Amaliyotda muammoli o'qitish metodlari quyidagilardan iborat bo'lib, musiqqa darslarida quyidagi muammoli o'qitish usullari qo'llanilishi mumkin:

Savol-javob: O'qituvchi murakkab musiqiy tushunchalarni tushuntirish o'rniga, o'quvchilarga tanqidiy savollar beradi.



Muammoli vaziyatlar: Masalan, yangi musiqiy asarni ijro etishda yoki musiqiy kompozitsiyani tahlil qilishda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni aniqlash va hal qilish.

Loyihalar: O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, musiqiy mavzu bo'yicha tadqiqotlar olib borishlari yoki ijodiy ishlar tayyorlashlari mumkin.

Tadqiqot va tahlil: O'quvchilar musiqiy asarlarning turli janr va uslublarini o'rganib, taqqoslashadi.

Shu bilan bir qatorda Muammoli o'qitishning qiyinchiliklari ham mavjud.

Har qanday metodda bo'lgani kabi, muammoli o'qitish ham o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi:

O'quvchilarning tayyorlik darajasi turlicha bo'lishi sababli, muammoli topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

O'qituvchi uchun darsni oldindan yaxshi rejalashtirish va o'quvchilarning bilim darajasini hisobga olish zarur.

Ba'zi o'quvchilar uchun faollik va mustaqil fikrlash talab qilinadigan vazifalar qiyin bo'lishi mumkin.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

- guruhlariga bo'lish
- muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlash
- muammoli vaziyatning oqibatlarini to'g'risida fikr yuritish
- muammoli vaziyatning yechimini ishlab chiqish
- to'g'ri yechimlarni tanlash



“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

- pedagog mavzuga oid muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi.
- pedagog o‘quvchilarga muammoni bayon qiladi.
- o‘quvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
- o‘quvchilar kichik guruhlariga ajratadi.
- kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar, muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar.
- muammoning oqibatlarini to‘g‘risida fikr-mulohazalar olib boradilar.
- muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar, muammoli vaziyatni echish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
- kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo‘yicha o‘z takliflarini bildiradilar.
- barcha xulosalardan so‘ng bir xil echimlar jamlanadi.
- o‘qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatni echish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi

Xulosa

Musiqqa darslarida muammoli o‘qitish metodini qo‘llash o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashga, ularning ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metod ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi, o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga rag‘batlantiradi. Shu bois, musiqa o‘qituvchilari zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishlari va amaliyotga tatbiq etishlari muhimdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sabirovna, Rasulova Saida. "MUSIQA O 'QITISH DARSLARIDA DIDAKTIK PRINSIPLAR." *Conferencea* (2022): 44-47.
2. Sabirovna, Rasulova Saida. "PREPARATION OF MUSIC TEACHERS FOR INNOVATIVE EDUCATIONAL ACTIVITIES." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.10 (2022): 351-353.
3. Расулова, С. С. "МУЗЫКАЛЬНО-РИТМИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ШКОЛЬНИКОВ В КОНТЕКСТЕ ШКОЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ." *ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ СИСТЕМАХ ОБРАЗОВАНИЯ*. 2021.
4. Sabirovna, Rasulova Saida. "BASIC PRINCIPLES OF VOCAL PEDAGOGY." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 812-815.
5. Askarova, S. M. (2023). Internet ethics and internet ethics in the information society. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 63-65.
6. Аскарова, Сохибахон Мухаммаджоновна. "Особенности певческого мастерства школьников в подростковом возрасте." *Oriental Art and Culture* 4.1 (2023): 874-878.
7. Askarova, S. "DEFECTS IN THE VOICE OF PUPILS AND WAYS TO ELIMINATE IT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 418-420.
8. Askarova, S. M. "EDUCATION OF SINGING SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN." (2023).



9. Asqarova, S. "XOR VA XORSHUNOSLIK FANI DARSLARIDA KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH." Eurasian Journal of Academic Research 2.7 (2022): 62-65.

10. Sohibaxon, Askarova. "PECULIARITIES OF ORGANIZATION OF MUSICALRHYTHMIC ACTIVITY IN MUSIC CULTURE CLASSES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.3 (2023): 536-539.

11. Mukhammadzhonovna, Askarova Sohibakhon, and Kusherbayev Zhanbolat Asetovich. "MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE ART OF MUSIC AND SINGING." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.02 (2023): 12-16.

9. Asqarova, S. "MUSIQIY TA'LIMIDA ABU ALI IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH." Interpretation and researches 1.1 (2023).

10. Asqarova, S., and M. Xayitboyeva. "UMUMTA'LIM MAKTABIDA XOR TO'GARAGI MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." Interpretation and researches 1.1 (2023).